

“TURKIY XALOLAR FOLKLORINING QIYOSIY O‘RGANILISHI MASALALARI”

mavzusida xalqaro ilmiy-nazariy anjuman

FOLKLORSHUNOSLIK TARAQQIYOTIDA MUSIQIY MEROSNING O‘RNI

(Yu.Rajabiyning 5 jildli "o‘zbek xalq musiqasi" kitoblari misolida)

Aziz RAJABIY,

O‘zbekiston davlat san‘at va madaniyat instituti, vokal kafedrası dotsenti

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15292296>

Annotatsiya. *Mazkur maqolada akademik Yunus Rajabiyning o‘zbek musiqiy folklorshunosligi, etnomusiqashunosligi taraqqiyotiga qo‘shgan hissasi tadqiq qilinadi.*

Kalit so‘zlari: *folklor, musiqa, an‘ana, qadriyat, Rajabiy, san‘at, meros, kuy, tarix.*

Аннотация. *В данной статье исследуется вклад академика Юнуса Ражабий в развитие узбекского музыкального фольклористики и этномузыковедения.*

Ключевые слова: *фольклор, музыка, традиция, ценность, Раджаби, искусство, наследие, мелодия, история.*

Annotation. *This article examines the contribution of academician Yunus Rajabi to the development of Uzbek musical folklore studies and ethnomusicology.*

Keywords: *folklore, music, tradition, value, Rajabi, art, heritage, melody, history.*

Millatning o‘zlik tomirlarini zamon bilan tutashtirib turuvchi qadimiy ildizlaridan biri xalq og‘zaki ijodidir. Unda xalqning orzu – umidlari, armonlari, ma‘naviyat va milliy qadriyatlari, an‘ana va urf-odatlar to‘liq namoyon bo‘ladi. Xususan, o‘zbek xalq musiqiy ijodiyoti ritm va usullarga boyligi, kuylardagi qochirimu nolalarning jozibadorligi bilan xarakterlanadi.

Onasi Oyshabibining ta‘sirida go‘daklikdan sehri xalq qo‘shiqlari, o‘lanlari va laparlariga mehr qo‘ygan Yunus Rajabiyning ilmiy – ijodiy faoliyatida folklorchilik, ijrochilik hamda bastakorlik mushtarak holda rivojlandi. U asrlar to‘fonini yengib, o‘zining go‘zal shakllari, sodda va teran mazmuni, maftunkor ohangini saqlab qolgan xalq qo‘shiqlarida ona tariximizning zalvorini, millatimizning yurak-yuragiga singib ketgan mungli armonlarini, millatning ma‘naviy-ma‘rifiy, badiiy-ruhiy salohiyati va zakovatini his qilardi.

Musiqiy meros insonlarning bir - biriga bo‘lgan o‘zaro munosabatlari asosida shakllanib, sayqallanib boradi. Millatlarning ma‘rifiy - madaniy aloqalari qadriyatlarning avlodlardan avlodlarga o‘tishi va boyib borishi jarayonida rivojlanadi, xalqaro miqyosga chiqadi. Yunus Rajabiy o‘zbek xalq musiqasini to‘plash, qiyosiy o‘rganish hamda notaga yozish jarayonida ashula va qo‘shiqlarni turli janrlarga ajratish, tasniflash tizimini mukammallashtirib bordi. Akademik V.Zohidov to‘g‘ri ta‘kidlaganidek, “Davrimizning ulkan xalq xonandasi va sozandasining buyuk fazilati

“TURKIY XALOLAR FOLKLORINING OIYOSIY O‘RGANILISHI MASALALARI”

mavzusida xalqaro ilmiy-nazariy anjuman

shundaki - u ijod mashaqqatidan cho‘chimadi, bir maqsad yo‘lida yashab, kuy bilan oshno bo‘ldi. Yuziga g‘ubor qo‘ngan kuylarimizning ustidan unutilish ridosini olib tashlab, sayqal berdi. Avlod boyligiga aylantirdi u durdonalarni. Bu bilan Yunus Rajabiy o‘zini asrimizning yetuk san‘atshunos olimi ham bo‘lib yetilganligini ko‘rsatdi. Besh jildlik xalq kuylari va qo‘shiqlari to‘plami, olti jildlik “Shashmaqom” kitoblari musiqa madaniyatimizning asriy oltin haykali bo‘lib, zamonlardan – zamonlarga o‘tib boradi” [Zohidov V. 7;].

Jahon folklorshunosligida xalqning milliy o‘zligini anglatadigan laparlar, alla va o‘lanlar, mavsumiy - marosim qo‘shiqlar namunalarining yaratilish jarayonlari, ma‘naviy – ijtimoiy ehtiyoji, janrlar tarkibining o‘ziga xos poetikasi, tarixiy genetik ildizlari tadqiqi eng dolzarb mavzu hisoblanadi. Chunki, insoniyat qadim – qadim zamonlardan yosh avlod kamolotiga alohida e‘tibor qaratib, tarbiyaviy g‘oyalarni xalq og‘zaki ijodida jozibali, ta‘sirchan va badiiy uslubda aks ettirib kelgan. Ularni keng ko‘lamda o‘rganish natijasida xalqning ruhiyati, qiziqishlarining folklorda ifoda etilishiga xos poetik qonuniyatlar, ijtimoiy – psixologik omillar, badiiy shakl tiplari haqida bilish imkoniyati tug‘iladi.

Musiqashunos M.Ahmedovning fikricha, “Yunus Rajabiyning folklorchilik faoliyatining boshlanishi, birinchi navbatda, u yashagan muhit, sharoit va atrofdagi sozanda va xonandalarning ijrochilik san‘ati va faoliyati bilan uzviy bog‘langan edi. U o‘zbek xalq kuylarini yozishga kirishar ekan, avvalo, notaga u soddaroq, olish o‘ng‘ayroq bo‘lgan kichik xalq kuylarini yoza boshlaydi va 1930 – yillarga kelib, bevosita maqomlarni ham nota yozuviga olishga kirishdi. Bu to‘g‘rida Yunus Rajabiyning o‘zi shunday xotirlaydi: ”Men yodimda mukammal saqlangan xalq kuylarini 1920 – yillardan boshlab oz – oz notaga yoza boshladim va nihoyat yozgan kuylarimning soni 1936 yilda 97 taga yetdi” [Ahmedov M. 4:52].

Folklor qo‘shiqlari o‘ziga xos janrlari, ijod va ijro xususiyatlari, tarbiyaviy – estetik mohiyati, poetik belgilari bilan alohida tizim sifatida namoyon bo‘ladi. Ularning har bir hududga xos xususiyatlarini tadqiq qilish esa, musiqiy folklorshunoslikning nufuzini ko‘taradigan eng muhim omillardan biridir. Xalq qo‘shiqlari ijodkorligi va ijrochiligining har bir hududda o‘ziga xos tarzda yaratilishi, saqlanishi va tadrijiy rivojlanishining, ularning tarixiy ildizlarining o‘rganilishi kelajakda pedagogika, etnografiya, san‘atshunoslik, etnomusiqashunoslik fanlarining taraqqiyotiga xizmat qiladi.

O‘zbekiston xalq artisti, o‘zbek opera san‘atining asoschisi M.Ashrafiy aytganidek, “Xalq artisti Yunus Rajabiy folklori juda yaxshi biluvchi kishilardan. U

“TURKIY XALOLAR FOLKLORINING OIYOSIY O'RGANILISHI MASALALARI”

mavzusida xalqaro ilmiy-nazariy anjuman

ko'pgina xalq qo'shiqlari va cholg'u asarlarini o'zining fenomenal xotirasida saqlab kelmoqda. Bu narsa Yunus Rajabiyga “O'zbek xalq musiqasi” to'plamiga kiritilgan kuylarni yozish, aniqroq qilib aytganda, to'plamning birinchi tomini nashrdan chiqargandan so'ng, tez orada ikkinchi va uchinchi tomlarini ham tayyorlash imkonini beradi” [Ashrafiy M. 5].

Albatta, barcha san'at turlarining tamal toshi hisoblanmish qaynar buloqdek pokiza xalq qo'shiqlari nafaqat millatning o'tmishi, milliy g'ururi va milliy o'zligini, balki, buguni va kelajagini o'zida ifoda etuvchi, uning taqdiri va maqsadlari bilan chambarchas bog'liq ijodiy jarayondir.

Bunyodkor millat eng avvalo tarixi, madaniyati, millatni ulug'lagan buyuk shaxslari bilan jahon madaniyati oltin jamg'armasiga qo'shgan katta – kichik hissasi bilan g'ururlanadi. Shunday qilib, o'zining asl madaniyati orqaligina boshqalarga taniladi. Azaldan yoshlarni komil insonlar qilib tarbiyalashda xalq og'zaki ijodining roli va ta'siri benihoya katta. Zero, xalq qo'shiqlari hamda qahramonlik dostonlariga xalqning aql – zakovati, orzu-havasi, ruhi va irodasi singdirilgan. Qo'shiq va termalar, o'lanlar o'zining teran mazmuni, samimiyati bilan o'quvchi qalbini rom qiladi. Ularda xalq donoligi hamda ko'p asrlik hayotiy tajribasi mujassam.

Xalq qo'shiqlari insonni ma'naviy go'zallashtiradi. Uni ezgulikka, yaxshilikka, el-yurt manfaati uchun mehnat qilishga chorlaydi, do'stlik, oilaga sadoqat, vatanparvarlik, mardlik, soflik, rostgo'ylik kabi eng go'zal insoniy fazilatlarini tarbiyalaydi. Yu.Rajabiy xalq orasida mashhur “Daryo toshqin...” deb boshlanadigan xalq qo'shig'ining kuyiga qo'shimcha cholg'u qismlarini kiritadi, ritmini va takt o'lchovini o'zgartiradi, natijada, kuy va qo'shiqning yanada jozibador, ta'sirchan bo'lishiga erishadi.

Ma'lumki, mamlakatimizning har bir hududi o'zining to'y qo'shiqlari – yor – yorlari, o'lanlari va aytishuvlari bilan mashhur. Yu.Rajabiy besh jildlik “O'zbek xalq musiqasi”ning ikkinchi va to'rtinchi jildlariga xalq so'zi bilan aytiladigan “yor - yor”larning o'zi to'plagan beshta variantini kiritgan. Zero, “Uning O'zbekiston musiqa madaniyatiga qo'shgan ulkan hissasi ikki mingdan ortiq xilma – xil xarakterdagi, turli janrlardagi o'zbek xalq ashula, qo'shiq, cholg'u kuylari, o'zbek bastakorlari ijodi va maqomlarni o'z ichiga olgan to'plamlardir” [Ahmedov M. 4:55].

Azal – azaldan xalq qo'shiqlari va laparlari hayotning, ta'lim-tarbiyaning hamma jabhalarini qamrab olishi bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Insonlarga, bizni o'rab turgan tabiatga, dov – daraxtlar, o't – o'lanlarga, hatto qushlaru, jonivorlarga ham musiqaning ta'siri beqiyos ekanligi hech kimga sir emas. Qadim zamonlarda

“TURKIY XALOLAR FOLKLORINING OIYOSIY O'RGANILISHI MASALALARI”

mavzusida xalqaro ilmiy-nazariy anjuman

hatto cho‘ponlar ham nay, do‘mbira, sibizg‘a, qo‘biz kabi musiqa asboblarini yonlarida olib yurishgan. Binobarin, dunyoda insonga musiqadek beminnat, samimiy, dilbar dardkash bo‘lmaydi. Qalblarimizni poklab, ruhlarimizni yoshartiradigan xalq musiqalari va qo‘shiqdarida aynan shu dardkashlikni, dildashlikni his qilamiz.

Taniqli folklorshunos olim, professor O.Safarov to‘g‘ri ta‘kidlaganidek, “Yunus Rajabiy o‘zbek xalq musiqa merosiga bag‘ishlangan 12 kitobi bilan o‘zbek musiqashunosligi tarixida o‘z o‘rnini belgilabgina qolmadi, balki o‘z badiiyatini ta‘minlagan mangulikka daxldor haykalini ham tiklab bildi. Chindan –da bu 12 kitob mislsiz betakror musiqiy xazina sifatida Yunus Rajabiy jasoratining musiqiy timsolidir” [Safarov O. 18:259].

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, qalb - odam va olamning ko‘zgidir. Qalb tabiiy - ruhiy quvvatni, ma‘naviy – ma‘rifiy idrokni, olamni anglash saboqlarini xalq musiqalari va qo‘shiqdaridan oladi. Akademik Yunus Rajabiy to‘plab, qayta ziynatlab, to‘ldirib, yangidan jon bag‘ishlab, 5 jildga jamlab, chop ettirgan “O‘zbek xalq musiqasi”turkum risolalari Uchinchi Renessans poydevorini yaratayotgan Yangi O‘zbekistonda ham ijtimoiy – tarixiy, ma‘naviy - ma‘rifiy, falsafiy – estetik ahamiyatga ega ekanligi bilan noyob qadriyat hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Madaniyat va san‘at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarori. “Yangi O‘zbekiston” gazetasi, 2022 yil, 4 fevral, 25- son.
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Маданият ва санъат соҳасининг жамият ҳаётидаги ўрни ва таъсирини янада ошириш чора – тadbirlari tўғрисида”ги Фармони. ЎЗА, 2020 йил, 26 май.
3. Абу Али Ибн Сино. Муסיкий билимлар тўплами. Т.:“Фан”, 1980.
4. Аҳмедов М. Юнус Ражабий. Т.: Гафур Гулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1980.
5. Ашрафий М. Устоз Юнус Ражабий //” Ўзбекистон маданияти”, 1957 йил, 10 май.
6. Жомий А. Рисолаи муסיкий. Тошкент.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” давлат нашриёти, 1998.
7. Зоҳидов В. Ҳазина.//” Ўзбекистон маданияти”, 1967 йил, 2 сентябрь.
8. Ражабий Ю.Ўзбек халқ муסיқаси. 1-ж.Т.:1955.
9. Ражабий Ю. Ўзбек халқ муסיқаси.2-ж.Т.:1957.
10. Ражабий Ю. Ўзбек халқ муסיқаси.2-ж.Т.:1958.
11. Акбаров И.Юнус Ражабий.М.:1982.
12. Гофурбеков Т. XX аср ўзбек муסיқаси ва Юнус Ражабий.Т.:1997.
13. Қўшжонов М. Шеър ҳофиз талқинида.. “Гулистон” журнали, 1997 йил, 1 – сон.
14. Ницше Ф. Рождение трагедии из духа музыки. Полное собрание сочинений.: в 23 т. Т.4. М.: изд.института философии РАН, 2014.
15. Ражабийнома. Т.: Арт –Пресс, 2016.
16. Ражабов И. Мақомлар. Т.:“Санъат”, 2006.

“TURKIY XALOLAR FOLKLORINING OIYOSIY O'RGANILISHI MASALALARI” mavzusida xalqaro ilmiy-nazariy anjuman

17. Сафар М. Алишер Навоий ва Юнус Ражабий. “Халқ сўзи” газетаси, 1991 йил, 20 апрель
18. Сафаров О. Сиймо. Ражабийнома. Т.: Арт –Пресс, 2016.
19. Соипова Д. Муסיқа ўқитиш назарияси ва методикаси. Ўқув-методик қўлланма.-Т.: 2009.
20. Ўзбекистон Миллий энциклопедияси. 2–жилд. Т.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2001.
21. Ўзбекистон Миллий энциклопедияси. 7-ж. Т.: “Ўзбекистон Миллий энциклопедияси” давлат илмий нашриёти, 2004.
22. Фитрат А. Ўзбек классик муסיқаси ва унинг тарихи. Т.: Маънавият, 1994.
23. Эшонов А. То тузди Навоий ояти ишқ.. Ражабийнома. Т.: Арт –Пресс, 2016.
24. Ражабий А. Юнус Ражабий феномени ва XX аср ўзбек муסיқашунослигининг шаклланиши. // Сўз санъати, 2024 й. 2-сон.
25. Ражабий А. Юнус Ражабий илмий – ижодий фаолиятида мумтоз ғазалларнинг муסיқий талқини. // Сўз санъати, 2024 й. 3-сон.